



## OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING HUQUQIY MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH VA "DAXLSIZ JAMG'ARMA (ENDOWMENT)" INSTITUTINI JORIY ETISH

**Murtozayev Sanjar**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-4468-1065

[sanjarmurtozayev1591@gmail.com](mailto:sanjarmurtozayev1591@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalariga berilgan moliyaviy va akademik mustaqillikning huquqiy asoslari tahlil qilingan, amaldagi qonunchilikdagi bo'shliqlar aniqlangan va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasasining "byudjet tashkiloti" maqomi bilan berilgan mustaqillik o'rtasidagi huquqiy nomuvofiqlik asoslab berilgan. Muallif tomonidan oliy ta'lim muassasasi uchun "daxlsiz jamg'arma (endowment fund)" institutini huquqiy tartibga solish modeli taklif etilib, uning asosiy elementlari korpusning daxlsizligi, sarflash tartibi, homiylar uchun soliq rag'batlari va boshqaruv mexanizmi belgilangan. Mazkur institut moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va muassasaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashning strategik vositasi sifatida asoslangan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, moliyaviy mustaqillik, akademik avtonomiya, huquqiy maqom, qonunchilik bo'shliqlari, daxlsiz jamg'arma, "endowment", moliyaviy diversifikatsiya, avtonom ta'lim muassasasi, korpus daxlsizligi.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО СТАТУСА ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ И ВНЕДРЕНИЕ ИНСТИТУТА «ЭНДАУМЕНТ-ФОНДА»

**Муртазаев Санжар**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье проанализированы правовые основы финансовой и академической самостоятельности, предоставленной высшим образовательным учреждениям, выявлены пробелы в действующем законодательстве и рассмотрены пути их устранения. В ходе исследования обосновано наличие правового несоответствия между статусом высшего образовательного учреждения как «бюджетной организации» и предоставленной ему самостоятельностью. Автором предложена модель правового регулирования института «эндаумент-фонда (endowment fund)» для высших образовательных учреждений, в рамках которой определены его основные элементы: неприкосновенность основного капитала, порядок использования доходов, налоговые стимулы для спонсоров и механизм управления. Данный институт рассматривается как стратегический инструмент диверсификации источников финансирования и обеспечения долгосрочной финансовой устойчивости образовательного учреждения.

**Ключевые слова:** высшее образование, финансовая самостоятельность, академическая автономия, правовой статус, пробелы законодательства, эндаумент-фонд, endowment, финансовая диверсификация, автономное образовательное учреждение, неприкосновенность капитала.

## IMPROVING THE LEGAL STATUS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND INTRODUCING THE ENDOWMENT FUND INSTITUTION

**Murtozayev Sanjar**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article analyzes the legal foundations of the financial and academic autonomy granted to higher education institutions, identifies gaps in the current legislation, and examines possible ways to address them. The study substantiates the legal inconsistency between the status of a higher education institution as a “budget-funded organization” and the autonomy granted to it. The author proposes a legal framework for regulating the endowment fund institution in higher education institutions and identifies its key elements, including the inviolability of the principal fund, expenditure rules, tax incentives for donors, and governance mechanisms. The article argues that the endowment fund serves as a strategic instrument for diversifying funding sources and ensuring the long-term financial sustainability of higher education institutions.*

**Keywords:** *higher education, financial autonomy, academic autonomy, legal status, legislative gaps, endowment fund, financial diversification, autonomous educational institution, inviolability of principal capital.*

### **Kirish.**

Oliy ta’lim muassasasiga mustaqillik berish — bu nafaqat boshqaruv masalasi, balki, eng avvalo, huquqiy masala. Muassasaga moliyaviy va akademik erkinlik berib, ayni paytda uni eski huquqiy qolipda — “byudjet tashkiloti” maqomida — qoldirish, obrazli aytganda, mashinaga zamonaviy dvigatel o’rnatib, uni eski tormoz tizimi bilan boshqarishga o’xshaydi. Aynan shu nomuvofiqlik bugungi kunda O’zbekiston oliy ta’lim tizimida mustaqillik islohotining amaliy samarasini cheklab turibdi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy va akademik mustaqillik berish bo’yicha jiddiy huquqiy qadamlar qo’yildi. Biroq berilgan vakolatlar bilan muassasaning amaldagi huquqiy shakli o’rtasida tafovut saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — oliy ta’lim muassasalari mustaqilligining huquqiy asoslarini tahlil qilish, qonunchilikdagi bo’shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo’llarini, jumladan, “oliy ta’lim muassasasi — daxlsiz jamg’arma (endowment)” institutini huquqiy tartibga solishni asoslashdan iborat.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Universitet avtonomiyasi va uning huquqiy jihatlari xalqaro adabiyotda keng o’rganilgan. Avtonomiya odatda to’rt o’lcham — tashkiliy, moliyaviy, kadrlar va akademik mustaqillik orqali tavsiflanadi (Becker, 1964). Oliy ta’limni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va daxlsiz jamg’armalarning roli AQSh va Buyuk Britaniya tajribasida chuqur tahlil etilgan bo’lib, yetakchi universitetlarning endowment jamg’armalari ularning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligining asosiy ustuniga aylangan (OECD. 2024). S. Marginson (2018) va Teichler (2018) ishlarida moliyalashtirish modellarining milliy o’ziga xosligi ko’rsatib berilgan.

Milliy miqyosda oliy ta’lim islohotlari va moliyaviy mustaqillik masalalari bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasasining tashkiliy-huquqiy maqomi bilan unga berilgan moliyaviy mustaqillik o’rtasidagi nomuvofiqlik hamda daxlsiz jamg’arma institutini milliy qonunchilikda tartibga solish masalalari yetarlicha o’rganilmagan. Ayniqsa, endowment institutining huquqiy ta’rifi, korpusning daxlsizligi va sarflash tartibi kabi spetsifik jihatlar milliy kontekstda deyarli ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, tizimli tahlil va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar (qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari) mazmuni tahlil qilinib, ulardagi bo'shliqlar aniqlandi. Daxlsiz jamg'arma institutini tartibga solish modeli xalqaro tajriba (AQSh, Buyuk Britaniya) bilan qiyoslangan holda, milliy huquqiy tizimga moslashtirilgan tarzda ishlab chiqildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalariga mustaqillik berishning huquqiy zamini bir qator strategik va normativ hujjatlar orqali shakllantirilgan. Tizimli islohotning konseptual asosini "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) hamda Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tashkil etadi. Mustaqillikning bevosita mexanizmlari esa 2021-yil 24-dekabrda PQ-60 va PQ-61-son qarorlarda belgilangan. PQ-60-son qaror (O'zbekiston Respublikasi, 2021) akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlab, vasiylik kengashlari o'rniga kuzatuv kengashlarini joriy etgan bo'lsa, PQ-61-son qaror (O'zbekiston Respublikasi, 2021) moliyaviy mustaqillikni — to'lov-kontrakt narxini mustaqil belgilash, soliq imtiyozlari va boshqa vakolatlarni — mustahkamlagan. Ushbu islohotlarning amaliy timsoli sifatida 2021-yilda Yangi O'zbekiston universiteti birinchi avtonom davlat oliy ta'lim muassasasi sifatida tashkil etildi.

Biroq berilgan mustaqillik amaldagi qonunchilikda bir qator bo'shliq va nomuvofiqliklarni ochib berdi. Tadqiqot natijasida to'rt asosiy huquqiy bo'shliq aniqlandi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Oliy ta'lim muassasalari mustaqilligini cheklovchi huquqiy bo'shliqlar

No	Huquqiy bo'shliq	Mohiyati
1	Tashkiliy-huquqiy shaklning noaniqligi	Mustaqillikka qaramay, muassasa "byudjet tashkiloti" maqomida qoladi va byudjet kodeksining qat'iy normalariga bo'ysunadi
2	Mablag'ni jamg'arish va investitsiyalash mexanizmi yo'qligi	Yil oxiri qoldig'ini erkin o'tkazish, kapitallashtirish va investitsiyalash huquqi tartibga solinmagan
3	Endowment institutining huquqiy bazasi yo'qligi	Daxlsiz jamg'armaning ta'rifi, korpus daxlsizligi va sarflash tartibi belgilanmagan
4	Mol-mulk va qarz vakolatlarining cheklanganligi	Mol-mulkni erkin tasarruf etish va investitsiya jalb qilish huquqi to'liq emas

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Bu bo'shliqlar orasida birinchisi — tashkiliy-huquqiy shaklning noaniqligi — markaziy o'rin tutadi, chunki qolgan barcha cheklovlar undan kelib chiqadi. Oliy ta'lim muassasasi moliyaviy mustaqillikka ega bo'lsa-da, huquqiy jihatdan byudjet tashkiloti bo'lib qolmoqda; bu maqom esa smeta-modda intizomi, g'aznachilik nazorati va byudjet mablag'larini tijoriy faoliyatga yo'naltirish taqiqi kabi qat'iy normalarni talab qiladi. Shu bois mustaqillikni real funksional mazmun bilan to'ldirish uchun, avvalo, avtonom ta'lim muassasasining alohida tashkiliy-huquqiy shaklini qonunda belgilash zarur. Yangi O'zbekiston universiteti tajribasi bunday maqomning amalda joriy etilishi mumkinligini ko'rsatadi va uni umumlashtirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu o'rinda akademik va moliyaviy mustaqillikning o'zaro bog'liqligini alohida ta'kidlash lozim. Akademik mustaqillik — o'quv rejalari, ta'lim yo'nalishlari va kadrlar siyosatini mustaqil belgilash — yetarli moliyaviy resurs bilan ta'minlanmasa, deklarativ bo'lib qoladi; moliyaviy mustaqillik esa akademik maqsadlarga xizmat qilmasa, o'z mazmunini yo'qotadi. Demak, taklif

etilayotgan avtonom ta'lim muassasasi maqomi ikkala mustaqillik turini yagona huquqiy doirada uyg'unlashtirishi shart. Xalqaro amaliyotda universitet avtonomiyasi to'rt o'lcham — tashkiliy, moliyaviy, kadrlar va akademik mustaqillikni qamrab oladi (World bank, 2018); milliy amaliyotda esa bu vakolatlarning bir qismi (kontrakt narxini belgilash, daromadni saqlash) berilgan bo'lsa-da, qarz jalb etish, mol-mulkni erkin boshqarish va mablag'ni jamg'arish kabi muhim vakolatlar hamon cheklangan. Avtonom maqomning huquqiy jihatdan to'liq belgilanishi ana shu vakolatlarni yaxlit tizimga keltiradi.

Aniqlangan bo'shliqlar ichida eng strategik ahamiyatga ega bo'lgani — daxlsiz jamg'arma (endowment) institutining huquqiy bazasi mavjud emasligidir. Daxlsiz jamg'arma — homiyar, bitiruvchilar va boshqa manbalardan tushgan mablag'lar hisobidan shakllantiriladigan, asosiy summasi (korpusi) daxlsiz saqlanib, faqat undan olingan investitsion daromad muassasa ehtiyojlariga sarflanadigan maxsus moliyaviy institutdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida bunday jamg'armalar universitetlarning eng barqaror moliyaviy manbasiga aylangan: korpus yildan-yilga o'sib boradi, sarflanadigan qism esa uning yillik investitsion daromadining belgilangan ulushi (odatda 4–5 foiz) bilan cheklanadi. Masalan, AQShning yetakchi universitetlarida daxlsiz jamg'armalar hajmi o'nlab milliard dollarni tashkil etib, ularning byudjetining sezilarli qismini ta'minlaydi va davlat moliyalashtirishiga bog'liqlikni keskin kamaytiradi.

O'zbekiston uchun endowment instituti moliyaviy diversifikatsiya muammosini hal etishning strategik yo'nalishi bo'lishi mumkin. Biroq uni amaliyotga tatbiq etish maxsus huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Muallif tomonidan endowment maqomini huquqiy tartibga solishning quyidagi elementlardan iborat modeli taklif etiladi (2-jadval).

2-jadval

**Daxlsiz jamg'arma (endowment) maqomini huquqiy tartibga solish modeli**

Element	Huquqiy norma mazmuni
Huquqiy ta'rif va maqom	Daxlsiz jamg'armani alohida notijorat moliyaviy institut sifatida belgilash
Korpusning daxlsizligi	Jamg'arma asosiy summasini sarflashni taqiqlash; faqat investitsion daromadni ishlatish
Sarflash tartibi (spend rule)	Yillik sarf jamg'arma qiymatining 4–5 foizi bilan cheklanishi
Investitsiyalash huquqi	Mablag'ni past riskli aktivlarga investitsiyalash va daromad olish ruxsati
Homiylar uchun rag'batlar	Jamg'armaga xayriya qiluvchilarga soliq imtiyozlari
Boshqaruv va shaffoflik	Kuzatuv kengashi orqali boshqarish, mustaqil audit va ommaviy hisobot
Operatsion byudjetdan ajratish	Endowment mablag'larini joriy byudjetdan huquqiy jihatdan ajratish

Taklif etilayotgan modelning iqtisodiy mantig'i quyidagicha: korpusning daxlsizligi tamoyili jamg'armaning joriy ehtiyojlar uchun sarflanib ketishining oldini oladi va uning kapital sifatida o'sib borishini kafolatlaydi; sarflash tartibi (spend rule) esa har yili faqat investitsion daromadning bir qismini ishlatishga ruxsat berib, jamg'armaning uzoq muddatda saqlanishini ta'minlaydi. Iqtisodiy jihatdan endowment uch muhim funksiyani bajaradi: moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalab, davlat va kontraktga bog'liqlikni kamaytiradi; avlodlararo adolat (intergenerational equity) tamoyilini ta'minlaydi — bugungi homiylik kelajak avlod talabalariga ham xizmat qiladi; iqtisodiy inqiroz davrida kontrtsiklik moliyaviy bufer vazifasini o'taydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi daxlsiz jamg'arma institutini milliy huquqiy tizimga moslashtirilgan tarzda tartibga solish modelini taklif etishda namoyon bo'ladi. Mazkur model amaldagi kuzatuv kengashlari instituti (PQ-60) bilan uyg'unlashib, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy avtonomiyasini real va barqaror asosga qo'yadi. Endowment institutini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: birinchi bosqichda huquqiy baza ishlab chiqiladi, ikkinchi bosqichda tajriba tariqasida ayrim yetakchi avtonom universitetlarda jamg'arma tashkil etiladi, uchinchi bosqichda esa mexanizm boshqa muassasalarga kengaytiriladi. Bunday bosqichli yondashuv huquqiy va moliyaviy risklarni minimallashtiradi.

Endowment institutini joriy etishda milliy huquqiy tizimning o'ziga xosligini hisobga olish muhim. Amaldagi qonunchilikda eng yaqin huquqiy shakl — jamg'armalar (notijorat tashkilot) to'g'risidagi normalar bo'lib, daxlsiz jamg'arma uchun maxsus normalarni aynan shu baza asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shuningdek, "vaqf" institutining tarixiy-huquqiy tajribasi — mol-mulkni doimiy, daxlsiz maqsadli foydalanishga ajratish g'oyasi — endowment tushunchasiga mazmunan yaqin bo'lib, milliy kontekstda uning qabul qilinishini osonlashtirishi mumkin. Amaliy nuqtai nazardan, endowment institutini joriy etish uchun "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga hamda byudjet va soliq qonunchiligiga tegishli o'zgartishlar kiritilishi, jumladan, jamg'armaga yo'naltirilgan xayriya mablag'lari uchun soliq imtiyozlari va korpus daromadiga nisbatan alohida soliq rejimi belgilanishi talab etiladi.

### Xulosa va takliflar.

Oliy ta'limni tashkil etishning innovatsion modeliga o'tish oliy ta'lim muassasasining huquqiy maqomini "byudjet tashkiloti"dan avtonom ta'lim muassasasiga aylantirishni taqozo etadi. Tadqiqot natijasida amaldagi qonunchilikda to'rt asosiy bo'shliq — tashkiliy-huquqiy shaklning noaniqligi, mablag'ni jamg'arish va investitsiyalash mexanizmining yo'qligi, endowment institutining huquqiy bazasi mavjud emasligi hamda mol-mulk va qarz vakolatlarining cheklanganligi aniqlandi. Muallif tomonidan oliy ta'lim muassasasi uchun daxlsiz jamg'arma (endowment) institutini huquqiy tartibga solish modeli — korpusning daxlsizligi, sarflash tartibi, homiylik uchun soliq rag'batlari va kuzatuv kengashi orqali boshqarish asosida — ishlab chiqildi. Ushbu huquqiy islohotlar moliyaviy mustaqillikni rasmiy maqomdan real boshqaruv salohiyatiga aylantiradi va oliy ta'lim muassasalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar / *Литература* / Reference:

Becker, G. S. (1964). *Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education*. Columbia University Press.

Farmon (2019) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. Toshkent.*

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2023-yil 3-iyul, PF-107-son. Toshkent.*

Marginson, S. (2018). *Global trends in higher education financing: The United Kingdom*. *International Journal of Educational Development*, 58, 26–36.

OECD. (2024). *Education at a glance 2024: OECD indicators*. OECD Publishing.

Qaror (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2021-yil 24-dekabr, PQ-60-son. Toshkent.*

Qaror (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2021-yil 24-dekabr, PQ-61-son. Toshkent.*

Qonun (2020) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son. Toshkent.

Teichler, U. (2018). Recent changes of financing higher education in Germany and their intended and unintended consequences. *International Journal of Educational Development*, 58, 37–46.

World Bank. (2018). *The human capital project*. World Bank Group.